

YOSHLAR MUOMMOLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISHDA OILA, MAHALLA VA TA'LIM MUASSASALARI HAMKORLIGINING AHAMIYATI

O'zbekiston Milliy Universiteti talabasi
Muqimova Aziza

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yoshlar muommolari tushunchasi, ularning xususiyatlari, oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi kabi jihatlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *konsepsiya, insonparvarlik, milliy g'urur, milliy davlatchilik, mahalla, yoshlar siyosati, yoshlar strategiyasi.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются понятие проблем молодежи, их особенности, а также такие аспекты, как сотрудничество семьи, махалли и образовательных учреждений.*

Ключевые слова: *концепция, гуманизм, национальная гордость, национальная государственность, махалля, молодежная политика, стратегия молодежи.*

Annotation: *This article discusses the concept of youth problems, their characteristics, as well as aspects such as cooperation between the family, the community (mahalla), and educational institutions.*

Keywords: *concept, humanism, national pride, national statehood, mahalla, youth policy, youth strategy.*

1991 yil 20 noyabrda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi yoshlarning ijtimoiy va ma'naviy jihatdan yuksak darajada kamol topishiga qaratilgan davlatning muhim yo'nalishlarini belgilab berdi va uni amalga oshirishning qonuniy asosini yaratib berdi[1]. Jamiyatimizni demokratlashtirish fuqarolik jamiyatini qaror toptirish maqsadlari zaminida aslida inson manfaatlari, yurtimizning, taraqqiyotimizning tayanchi va suyanchi bo'lgan yoshlar turadi.

Kelajagimiz egalarini ma'nan yetuk, jismonan sog'lom, yuksak salohiyatli, hech kimdan kam bo'lmagan holda kamolga yetishida oila- mahalla- ta'lim muassasini hamkorligi muhim ahamiyatga ega. O'sib borayotgan yosh avlodni har tomonlama yuksak barkamol etib tarbiyalash xalqimizning tarixiy orzusi bo'lib, farzandlarni axloqiy-ma'naviy, milliy madaniy, tarixiy an'analariga hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, komil shaxsni shakllantirish ota-onalar, maktab, mahallalar, umuman olganda jamiyatning har bir tabaqasining oldida turgan eng asosiy Ma'suliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Farzandlar oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoada anglaydi. Ular ongiga dastlabki ma'naviy-axloqiy bilimlarni singdirishda oilaning, ayniqsa, ta'lim-tarbiya muassasalarining o'рни muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiya muassasalari, oila va mahalla qo'mitalari ijtimoiy institutlarning asosiy vazifasi barcha

yoshlarimizning ma'naviy boyligini, dunyoqarashini yuksaltirishga, ularning o'ziligini anglashiga, tarixini bilishga ko'maklashib boradi.

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y- harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993 yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" Kontsepsiyasi yoshlarni istiqloq g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida ma'lum dasturilamal bo'ldi.

Respublikamizda keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va o'quv bilim yurti nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi[2].

Zero, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda ham davlat bosh islohotchidir, Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, birinchidan, yosh avlodga o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish kerak. Davlatimiz rahbari ko'rsatib berganidek, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar:

birinchidan, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatishga, umuman mamlakatdagi mavjud muhitni butunlay o'zgartirishga;

ikkinchidan, insonning hayotda o'z o'rnini topishini tezlashtirishga;

uchinchidan, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishda;

to'rtinchidan, insondagi mavjud salohiyatni to'la ro'yobga chiqarishga;

beshinchidan, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Vatanimiz tarixi guvohlik beradiki, o'zbek jamiyatida jamoa bo'lib yashashning sinalgan shakli mahalladir. "Mahalla" so'zi arabcha "Mahallun" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, aholi yashaydigan joy, guzar, uy-joy mavzelari degan ma'noni anglatadi.

Mahalla shaharlar ichidagi kichik hududiy birlik bo'lib, o'tmishdan meros bo'lib kelmoqda. Bejizga yurtboshimiz mahalla – yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi, deb ta'kidlamagan. -Bir bolaga yetti mahalla ota – ona degan naqldan kelib chiqib kelajak avlodni tarbiyalash va unga ta'lim berish jarayonini amalga oshirish borasida kichik Vatan bo'lmish mahallaning oldida quyidag vazifalar turadi: mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan masalalarni muhokama qilishda qatnashishi va oqilona yechimlarini topishda faollik ko'rsatilishi; mahalla o'z hududidagi ijtimoiy va iqtisodiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni qo'llab-quvvatlab va farzandlarining bilim va tarbiya olishlariga bosh-qosh bo'lishi; ma'nan nosog'lom oilalarni mahalla yig'inlarida muhokama qilish, ularga nisbatan jamoatchilik choralari ko'rish; mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalariga iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko'rsatilishini qo'llab-quvvatlash; ota-onalar orqali bolalarni tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, milliy odob, mafkuraviy onglik,

baynalmilallik kabi xislatlarni singdirishni har tomonlama rag'batlantirish; yoshlarga diniy mashablar va sektalar, aqidaparastlikning mohiyatini to'g'ri anglab yetishiga ota-onalar orqali ta'sir ko'rsatish, ulug' ajdodlarimizning tarbiyaviy og'itlarini singdirib borishga jamoatchilikni safarbar qilish kabilar turadi.

Bundan tashqari mahalla yettiliklarida Ijtimoiy ish xodimi xizmat tizimini qaror topishi aholi bilan ishlashda fuqarolarni samarali ijtimoiy qo'llab-quvvatlash imkonini beradigan zamonaviy metodika va texnologiyalardan foydalanish mamlakat ijtimoiy siyosatining eng muhim tendensiyasi hisoblanadi. hozirgi O'zbekiston sharoitida aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimi alohida shaxslarni, oilalar yoki guruhlarini moslashtirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning muayyan usullari tizimi sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan muhimi- bu ham bo'lsa ijtimoiy siyosatdir. Har yilgi davlat xarajatlarning katta qismi aynan ijtimoiy masalalarga ajratilayotganligi- fikrimizning dalilidir.

Davlat dasturining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat va jamoat tashkilotlarining mustahkam hamkorligi, ta'lim muassasalari mutaxassislari, oilalar, mahalla faollari, umuman barcha fuqarolarning faol ishtirokini taqozo etadi. Bolalar kelajagimiz ekan, ularni ham jismonan, ruhan, ham ma'nan sog'lom bo'lib kamolga yetkazish asosiy vazifamizdir. Yuqoridagi vazifalarni bajarishda jamiyatning barcha qatlamlari bilan bir qatorda ijtimoiy ish xodimlarining ham asosiy kasbiy faoliyati hisoblanadi.

Jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti, ota-onalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlash to'g'risida Vazirlar Mahkamasi 2012 yil 19 iyunda qaror qabul qiladi[3]. Ushbu qarorda quyidagilar ustuvor vazifa qilib belgilangan: Jumladan, Respublika "Mahalla" fondining O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzurida "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligi jamoat kengashini hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari huzurida "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligi hududiy jamoat kengashlarini tuzish to'g'risidagi takliflari ma'qullanishi, oila, umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari va mahalla hamkorligining samaradorligi va natijadorligini ta'minlash; oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligini yana-da kuchaytirishga doir uslubiy asoslarni yaratishni tashkil etish; ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi o'rni, majburiyati, mas'uliyati va farzandlar bilan o'zaro munosabatlarini mustahkamlashga ko'maklashish; ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya sifatini o'rganish va ularni yana-da takomillashtirishga oid tadbirlarni amalga oshirish; qonunchilik talablaridan kelib chiqib ta'lim muassasalariga yaqin hududlarda alkogolli va tamaki mahsulotlari sotilishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatish, ta'lim-tarbiya jarayonini hamda ushbu sohaga oid normativ huquqiy hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflarni belgilangan tartibda tegishli davlat organlariga kiritish, hududiy jamoat kengashlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish va boshqalar.

Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya jarayoni qanchalar yuksak bo'lsa, shuncha ko'p ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy yuksalish bo'laveradi. O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid siyosat

davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi 23-son qaroriga ko'ra "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish" Konsepsiyasi qabul qilingan[4]. Unda ta'kidlanishicha "O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatini 2025- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari, Hukumat qarorlari, BMT ning 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari,, 2030 yilgacha mo'ljallangan "Yoshlar strategiyasi", Yoshlar manfaatlari bo'yicha butunjahon harakatlar dasturi, 2020 yil dekabr oyida tashkil etilgan "O'zbekiston yoshlari" Forumida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha belgilangan vazifalar asosida ishlab chiqilgan. O'zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadi- yoshlarni jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash, ilmiy va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda mamlakatda amalaga oshirilayotgan demokratik, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarga faol jalb qilishdan iborat.

Konsepsiya BMT ning "Yoshlar 2030" strategiyasida belgilangan "Yoshlar manfaatlarini ko'zlab ular bilan ishlash" bosh tamoyiliga asoslanadi. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lini tanlagan mamlakatimizda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi va unda shaxs tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatuvchi milliy qadriyatlar yil sayin qadr topib, nufuzi oshib bormoqda. Buning asosiy sababi davlat tomonidan ijtimoiy institutlarga har tomonlama e'tibor qaratilayotganidir.

Xulosa o'rnida shu narsani ta'kidlab o'tish lozimki, barkamol va ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda oila va ta'lim muassasasining o'rni beqiyos hisoblanadi. Mening fikrimcha ta'lim tarbiyaning asosiy o'chog'i oila. Yoshlarga ta'lim-tarbiyani oilada to'g'ri yo'naltirish lozim. Bu borada oila, mahalla va ta'lim muassasasining birgalikdagi faoliyati o'z samarasini ko'rsatadi. Jamiyatimizning har bir a'zosi oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligini ta'minlashning huquqiy bazasini takomillashtirishga, hamkorlikning kuchayishiga qaratilgan uslubiy ta'minotni mustahkamlashga o'zlarining beqiyos hissalarini qo'shishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To'ychiyeva "Yoshlar va konfliktlar: konfliktlar yechimiga o'rganish" Toshkent. 2008
2. "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" Konsepsiyasi. 1993
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 19 iyun 175-sonli qarori.
4. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi 23-sonli qarori.